O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 4

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 4
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

4-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 4
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (IJCSTR)
VOLUME 2 ISSUE 4/ ISSN 2181-3884

AUTIZM SPEKTRI BUZILISHI BO‘LGAN BOLALARDA MULOQOTNI RIVOJLANTIRISH UCHUN O‘YIN FAOLIYATINI TASHKIL QILISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Abidova Nazokat

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, dotsent (PhD).
e-mail: nabidova61@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0006-6681-9213

Annotatsiya.

Autizm spektri buzilishi (ASB) bo‘lgan bolalar ijtimoiylashuvida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish korreksion pedagogikada muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy maxsus pedagogikada muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning qator metodlari mavjud bo‘lib, o‘yin faoliyati o‘zining qulayligi va samaradorligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada muloqotni shakllantirish maqsadida ASB bo‘lgan bolalar bilan o‘yin faoliyatini tashkil etishning muhim xususiyatlari to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: autizm spektri buzilishi (ASB), ijtimoiylashuv, korreksion pedagogika, o‘yin faoliyati, metod, muloqot.

ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАЦИИ У ДЕТЕЙ С РАССТРОЙСТВАМИ АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА

Абидова Назокат

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, доцент (PhD).

Аннотация.

Развитие коммуникативных навыков в процессе социализации детей с расстройствами аутистического спектра (РАС) имеет важное значение в коррекционной педагогике. В современной специальной педагогике существует ряд методов формирования и развития коммуникативных навыков, среди которых игровая деятельность выделяется своей доступностью и эффективностью. В данной статье рассматриваются основные особенности организации игровой деятельности с детьми с РАС в целях формирования коммуникативных навыков.

Ключевые слова: расстройства аутистического спектра (РАС), социализация, коррекционная педагогика, игровая деятельность, метод, коммуникация.

SPECIFIC FEATURES OF ORGANIZING PLAY ACTIVITIES TO DEVELOP COMMUNICATION IN CHILDREN WITH AUTISM SPECTRUM DISORDER

Abidova Nazokat

Uzbekistan National Pedagogical University named after Nizami, Associate Professor (PhD).

Abstract.

The development of communication skills in the socialization of children with autism spectrum disorder (ASD) plays an important role in special education and corrective pedagogy. Modern special education offers a variety of methods for forming and developing communication skills, among which play activities stand out for their accessibility and effectiveness. This article examines the key features of organizing play activities for children with ASD to foster the development of communication skills.

Keywords: autism spectrum disorder (ASD), socialization, corrective pedagogy, play activities, method, communication.

Kirish. Zamonaviy maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri autizm spektri buzilishi (ASB) bo‘lgan bolalarni jamiyatga ijtimoiylashtirish va ularning muloqot imkoniyatlarini ilmiy asoslangan metodlar yordamida kengaytirishdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, autizm hali ham yaxshi tushunilmagan va uning tashxisi ko'plab mamlakatlarda yetarlicha rivojlanmagan. Atigi 20 yil oldin shifokorlar bolalarga autizm o'rniga shizofreniya tashxisini qo'yishgan. Masalan, O'zbekistonda autizm spektri buzilishi 2010-yillardan boshlab keng muhokama qilina boshlandi. Birgina Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi Farg'ona hududiy filiali mutaxassislari tomonidan 2016-yildan 2023-yilning birinchi choragigacha turli psixosomatik kasalliklarga chalingan 4562 nafar bola tekshiruvdan o'tkazilgan bo'lib, ulardan 150 nafar bolaga turli xil ASB shakllari tashxisi qo'yildi. Bu psixosomatik, genetik va boshqa kasalliklarga chalingan bolalar umumiy sonining 3,2 foizini tashkil qilgan edi [1, 6-b.].

Imkoniyati cheklangan bolalar ta'limini tubdan isloh qilish va xalqaro talablar hamda tajribalar asosida takomillashtirish Yangi O'zbekiston davlati ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Bugungi kunga kelib, ASBni barvaqt aniqlash bilan bir qatorda, mazkur toifadagi bolalarga sifatli korreksion yordamni tashkil qilish orqali ularning jamiyatga faol integratsiyasini ta'minlash bilan bog'liq amaliy ishlar ham yangi bosqichga ko'tarildi. Ayni paytda sohaga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodikalarni joriy etish masalasi ham maxsus pedagogika oldiga dolzarb ilmiy va amaliy masalalarni qo'ymoqda.

ASBli bolalarda muloqot, ijtimoiylashuv va xulq-atvor sohasidagi tizimli nuqsonlar kompleks, ilmiy asoslangan va izchil korreksion yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu borada ilmiy asoslangan psixologik-ijtimoiy yordam autizmli shaxslarning muloqot ko'nikmalarini yaxshilaydi, jamiyat darajasidagi inklyuziv chora-tadbirlar esa ularning hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bolalik davrida yetakchi faoliyat hisoblangan o'yin esa autizmli bolalarda ijtimoiy aloqalar va kommunikatsiyani shakllantirishning eng tabiiy hamda samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan pedagogik faoliyatning nazariy asoslarini yoritishda bolaning rivojlanish xususiyatlari, ta'lim muhiti va korreksion ta'sirning o'zaro aloqadorligini ochib beruvchi ilmiy qarashlar muhim ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishdagi adabiyotlar o'yin faoliyatini o'rganish bilan bir qatorda, pedagogik yondashuvlarning mazmuni, bolaning individual imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantiruvchi sharoitlarni belgilash uchun ham metodologik asos yaratadi.

D. B. Elkoninning bola rivojlanishi va o'yin faoliyati o'rtasidagi munosabatga oid nazariy qarashlari pedagogik jarayonni yosh xususiyatlariga muvofiq tashkil etish masalasini tushunishda muhimdir. Olimning yondashuvi o'yin shakllarini bolaning rivojlanish jarayonidan ajratmagan holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu nazariy nuqtayi nazardan, maxsus pedagogik yordamni rejalashtirishda umumiy yosh mezonlaridan tashqari, bolaning amaldagi rivojlanish darajasi va faoliyatni mustaqil bajarish imkoniyatlarini ham hisobga olish lozim. Bu yondashuv individual ta'lim vazifalarini belgilash va ularning murakkablik darajasini asoslash uchun nazariy zamin yaratadi [1, 360-b.].

L. P. Balaka va D. N. Sixraning ilmiy qarashlari ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishni inklyuziv ta'lim sharoitlari bilan bog'liq holda o'rganish imkonini beradi. Ushbu yo'nalishdagi izlanishlar alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning ta'lim muhitidagi ishtiroki va ijtimoiy munosabatlarini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash masalasining dolzarbligini ko'rsatadi. Mazkur qarashlarning ahamiyati shundaki, bolaning rivojlanish imkoniyatlarini faqat individual xususiyatlar bilan izohlash yetarli emas; ta'lim muhiti, pedagogik talablar va o'zaro munosabatlarni tashkil etish usullari ham e'tiborga olinishi zarur. Shu jihatdan inklyuziv muhitning moslashuvchanligi va bolaning undagi ishtirokini ta'minlash shartlari alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [2, 46–49-b.].

E. G. Amelina tomonidan autizm spektri buzilishi bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni neyropsixologik jihatdan farqlash va korreksiyalash masalalarining ko'rib chiqilishi pedagogik yordamni bolaning rivojlanish profiliga muvofiq belgilash zarurligini anglashga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishning metodik ahamiyati bolalarning imkoniyatlarini umumiy tavsiflar asosida baholash bilan cheklanmasdan, ularning individual qiyinchiliklari va mavjud resurslarini aniqlashga e'tibor qaratishidadir. Bunday yondashuv korreksion ishlarning maqsadini aniq belgilash, pedagogik vazifalarni tabaqalashtirish va rivojlanish dinamikasini izchil kuzatish uchun asos bo'la oladi. Shuningdek, u pedagogik yordamning mazmunini belgilashda bolaning ehtiyojlari bilan ta'limiy talablar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash masalasini kun tartibiga olib chiqadi [3, 50–55-b.].

A. S. Vasina va L. A. Tishinaning kommunikatsiyani o'yin terapiyasi orqali rivojlantirishga doir ishlari pedagogik munosabatlarning shakllanish shartlarini tahlil qilish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Mazkur yondashuvdan kelib chiqadigan muhim jihat korreksion faoliyatning samarali tashkil etilishi pedagogning bolaning xatti-harakatlarini kuzatishi, uning javoblarini to'g'ri talqin qilishi va pedagogik ta'sirni vaziyatga muvofiq o'zgartira olishiga ham bog'liqligidir. Demak, mutaxassisdan faqat metodik usullarni bilish emas, balki boladagi o'zgarishlarni kuzatish, muloqot imkoniyatlarini baholash va keyingi pedagogik vazifalarni shu asosda belgilash kompetensiyasi ham talab etiladi. Bu jihat o'yin terapiyasini oldindan belgilangan harakatlar yig'indisi sifatida emas, balki bolaning javoblariga mos ravishda tashkil etiladigan pedagogik jarayon sifatida tushunishga imkon beradi [4, 313–318-b.].

S. K. Ilyinaning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi maxsus rivojlantiruvchi faoliyatga oid metodik qarashlari pedagogik muhitni tashkil etish va ta'limiy vositalardan maqsadli foydalanish masalalari bilan bog'liq. Mazkur manbaning ushbu mavzu uchun ahamiyati mashg'ulotning tashkiliy shartlari ham bolaning faoliyatga qo'shilish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatishini hisobga olish zaruratidadir. Pedagogik jarayonning oldindan rejalashtirilishi, vositalarning vazifaga muvofiq tanlanishi va mashg'ulot davomida bolaga taqdim etiladigan talablarning izchilligi maxsus ta'limni tashkil etishning

muhim jihatlari hisoblanadi. Shuningdek, metodik ta'minotning mavjudligi pedagogga mashg'ulotlarni tizimli olib borish va bolaning o'zlashtirish jarayonini kuzatish imkonini beradi [5, 128-b.].

N. P. Nosenkoning maktabgacha yoshdagi autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning jismoniy sifatlari, sensor idroki va nutqiy rivojlanishini takomillashtirishga oid ishlari rivojlanishning turli yo'nalishlarini o'zaro bog'liq holda o'rganish muhimligini ko'rsatadi. Ushbu ilmiy yo'nalishning metodologik qiymati boladagi rivojlanish o'zgarishlarini alohida ko'nikmalar bilan cheklamasdan, ularning o'zaro munosabatini ham hisobga olish imkoniyatidadir. Pedagogik rejalashtirishda bu yondashuv mashg'ulot maqsadlarini bir-biridan uzilgan vazifalar tarzida emas, balki umumiy rivojlantiruvchi maqsadga xizmat qiluvchi tarkibiy qismlar sifatida belgilashni taqozo etadi. Shu bilan birga, qo'llaniladigan vositalarning bolaning individual xususiyatlariga muvofiqligi va ularning ta'limiy maqsad bilan bog'liqligi metodik jihatdan asoslanishi lozim [6, 1–11-b.].

A. M. Tuxtarovaning autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning xususiyatlariga oid qarashlari pedagogik kuzatuvning ahamiyatini ochib berish uchun muhimdir. Bolaning faoliyatdagi xatti-harakatlarini tavsiflash bilan birga, ularning yuzaga kelish sharoitlarini aniqlash pedagogik qarorlarning asoslanganligini oshiradi. Bunda mutaxassis bolaning muayyan vaziyatlardagi javoblarini, faoliyatga munosabatini va taqdim etilgan topshiriqlarga moslashish xususiyatlarini muntazam kuzatishi lozim. To'plangan kuzatuv ma'lumotlari individual pedagogik vazifalarni aniqlash, qo'llanilayotgan yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish va rivojlanishdagi o'zgarishlarni baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi [7, 101–103-b.].

V. M. Samoylova va E. E. Malaxovaning korreksion faoliyatda o'yinning o'rniga oid ilmiy qarashlari maxsus pedagogik yordamning mazmunini belgilashda bolaning faoliyatga munosabatini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvning muhim tomoni pedagogik faoliyatni faqat belgilangan natijaga erishish talabi bilan cheklamasdan, jarayonning bolaning individual holatiga muvofiqligini ham baholash imkoniyatidir. Bu esa mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogik vazifalar bilan bolaning imkoniyatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash, qo'llanilayotgan usullarning maqsadga muvofiqligini muntazam tekshirish va zarur hollarda ularni o'zgartirishga e'tibor qaratishni talab qiladi [8, 4–9-b.].

E. A. Yanushkoning autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan pedagogik-psixologik ishga doir qarashlari mutaxassis faoliyatining metodik jihatlarini yoritishda ahamiyatlidir. Mazkur yo'nalish bolaning individual ehtiyojlariga mos vositalarni tanlash, pedagogik vazifalarni bosqichma-bosqich belgilash va qo'llanilayotgan usullarning amaliy maqsadini aniqlashtirish masalalarini qamrab oladi. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, metodik vositaning mavjudligi o'z-o'zidan pedagogik samaradorlikni kafolatlamasligini ta'kidlash mumkin. Muhim jihat uning muayyan bola uchun qanchalik mos kelishi, belgilangan vazifaga xizmat qilishi va amaliy faoliyat davomida qanday o'zgarishlarga olib kelishini izchil baholashdan iborat [9, 136-b.].

M. Seligmanning alohida rivojlanish ehtiyojlariga ega bolalarni qo'llab-quvvatlashga oid qarashlari pedagogik faoliyatda bolaning shaxsiy tajribasiga e'tibor qaratish masalasini yoritadi. Ushbu yondashuv bolaning xatti-harakatlarini faqat tashqi kuzatuv asosida baholash bilan cheklanmasdan, ularning kundalik tajriba va muayyan vaziyatlar bilan bog'liqligini ham hisobga olish zarurligini anglatadi. Pedagogik yordamni rejalashtirishda bolaning odatiy faoliyat sharoitlari, atrofidagi insonlar bilan munosabatlari va o'zlashtirgan ko'nikmalaridan foydalanish imkoniyatlarini inobatga olish muhimdir. Bu esa maxsus ta'lim jarayonini bolaning kundalik hayotidan uzib qo'ymasdan, o'zlashtirilgan ko'nikmalarning amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda tashkil etish imkonini beradi [10, 29-b.].

O. S. Nikolskaya, E. R. Baenskaya va M. M. Liblingning autizmli bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlashga doir ilmiy qarashlari pedagogik kuzatuv va bolaning tajribasini mazmunan talqin qilish masalalari bilan bog'liq. Ushbu yondashuvning ahamiyati bolaning muayyan vaziyatga munosabatini tushunish, uning tajribasini izohlash va pedagogik yordamni shu asosda rejalashtirish zaruratida namoyon bo'ladi. Bolaning faoliyatdagi ishtirokini baholashda faqat tashqi natijaga emas, balki vazifani tushunish jarayoni, vaziyatga moslashish xususiyatlari va o'zlashtirilgan tajribadan foydalanish imkoniyatlariga ham e'tibor qaratish lozim. Shu jihatdan mazkur qarashlar maxsus pedagogik yordamning individual yo'nalishini belgilash hamda bolaga ko'rsatiladigan ko'makning mazmunini aniqlashtirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [11, 224-b.].

METODOLOGIYA

Maqolada autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda o'yin faoliyatining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan nazariy-tahliliy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini maxsus pedagogika, korreksion ta'lim va bolalar psixologiyasida shakllangan o'yin faoliyati hamda kommunikativ rivojlanish haqidagi ilmiy qarashlar tashkil etdi. Adabiyotlarni qiyosiy-tahliliy o'rganish orqali ASBli bolalarning o'yin faoliyatidagi stereotiplik, sensor ehtiyojlar, muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar hamda individual rivojlanish xususiyatlari aniqlandi. Shuningdek, pedagogik kuzatuv, tizimlashtirish va umumlashtirish usullari asosida o'yin faoliyatini tashkil etishning bosqichlari, kommunikativ vazifalari va pedagogik shartlari belgilandi. Mavjud ilmiy-metodik yondashuvlarni tahlil qilish asosida sensor, hissiy, syujetli va hamkorlikka asoslangan o'yinlarning muloqotni rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritildi.

NATIJA

Autizmli bolalarda o'yin faoliyati o'ziga xos stereotiplik, syujetli-rolli o'yinlarning rivojlanmaganligi va sherigi bilan muloqotga kirisha olmaslik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ko'pincha an'anaviy o'yin metodlari ASB bo'lgan bolalarda

kutilgan kommunikativ natijani bermaydi, chunki ular o‘yin qoidalarini va ijtimoiy ishoralarni tushunishda qiynaladilar. Shu sababli ushbu bolalarning o‘ziga xos sensor va kognitiv ehtiyojlarini hisobga olgan holda, muloqotni faollashtiruvchi maxsus o‘yin texnologiyalarini ishlab chiqish va mahalliy ta’lim tizimiga moslashtirish zarurati mavjud.

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalik davrida asosiy faoliyatdir. S. Petrenkoning so‘zlariga ko‘ra, bu ASB bo‘lgan bolaning shaxsiyatini, irodaviy va kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali vositasidir [3, 46–49].

D. B. Elkonin bola bolalik davrida boshidan kechiradigan o‘yin rivojlanish bosqichlarini (uch yoshgacha – obyektga asoslangan o‘yin, uch yoshdan yetti yoshgacha – rol o‘ynash, olti yoshdan yetti yoshgacha – qoidalar bilan o‘ynash) tasvirlab bergan. Normal rivojlanish davrida bola ushbu bosqichlarning barchasidan o‘tadi. Qoida tariqasida, o‘yin rivojlanishi kattalarning maxsus aralashuvisiz sodir bo‘ladi. O‘yinsiz shaxs rivojlanmaydi va yetuk bo‘lmaydi. O‘yinning rivojlanishi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim dasturiga kiritilgan – guruhli o‘yin, dramatizatsiya, ochiq havodagi o‘yin va boshqalar [11, 360]. Afsuski, E. G. Amelina ta’kidlaganidek, ASB bo‘lgan bolalarda o‘yin faoliyati rivojlanmaydi, u narsalar bilan manipulyatsiya darajasida qoladi, hissiy manipulyatsiya mavjud. ASB bo‘lgan bolalar rivojlanish uchun maxsus sharoitlarga muhtoj, shuning uchun o‘qituvchi alohida rol o‘ynaydi [2, 50–55].

A. S. Vasinaning fikriga ko‘ra, birinchi bosqichda ASB bo‘lgan bola bilan aloqa o‘rnatish, ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otish va bola bilan o‘qituvchi o‘rtasida qulay psixologik muhit yaratish kerak. Kuzatuv bolaning qiziqishlari va ishtiyoqlarini aniqlashning eng samarali usuli hisoblanadi. Pedagog bolani qo‘shma faoliyatga jalb qilish imkoniyatini aniqlaydi. U avvalo bola bilan aloqa o‘rnatishni yengillashtirishi, bosimdan va uzoq tikilib qarashlardan qochishi kerak. Kattalar va bola o‘rtasidagi birinchi aloqa urinishlari tinch muhitda amalga oshirilishi kerak. Shu bilan birga, bolaning ruhiy holatini kuzatib borish lozim. Agar bola xavotirga tushsa, ham taktil, ham vizual aloqani yo‘qotish xavfi vujudga keladi [4, 313–318]. S. I. Ilyinaning fikriga ko‘ra, ASB bo‘lgan bolaning e’tiborini jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ba’zi jihatlar mavjud:

- Baland ovozda gapirmaslik;
- To‘satdan harakatlar qilmaslik;
- Bolaning ko‘zlariga tikilib qaramaslik;
- Agar bola o‘zini noqulay his qilsa, unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilmaslik;
- Ortiqcha bezovta qilmaslik [5, 128].

Bola kattalar bilan muloqot qilishga qiziqib qolgandan so‘ng, guruh o‘yinlari yoki rasm chizish orqali muloqot qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. O‘yinning kaliti bolani o‘zi harakat qiladigan, xursand bo‘ladigan va voqealarni boshdan kechiradigan syujetga jalb qilishdir.

ASB bo‘lgan bolalar bilan o‘yin hissiy o‘yinga asoslangan bo‘lishi lozim. O‘yinga mazmunli kontekst berilishi kerak. Agar bola tebranishni boshlasa, kattalar bolani quchoqlab, u bilan birga tebranishni boshlashi, bu harakatga izoh berishi va tasavvurga undashi kerak: “Biz shamolda tebranadigan gullarmiz, to‘lqinlardagi qayiqlarmiz” tarzida. Dastlab boladan ko‘p faollikni talab qilmaydigan barqaror vaziyatlar taklif etiladi.

Ikkinchi bosqich: Dastlabki muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va ko‘z bilan aloqa o‘rnatish.

Dastlab maktabgacha yoshdagi ASB bo‘lgan bolalarda muloqotni rivojlantirish bo‘yicha korreksion ishlar o‘yin terapiyasi orqali amalga oshiriladi: o‘yinchoqlarni yorug‘lik, tovush va rang bilan boshqarish. Bolaning qiziqishini uyg‘otish va uning qiziqishini eng ko‘p uyg‘otadigan narsaga nigohini qaratishini mustahkamlash muhimdir [7, 1–11]. Bolaning nigohi qiziqish uyg‘otadigan narsaga tushsa, o‘sha narsa bolaga beriladi. Vaqt o‘tishi bilan taklif qilingan narsalarga nigohini qaratish kuchayadi va bola nafaqat o‘yinchoqni, balki uni taklif qilayotgan pedagogni ham sezadi. “Ha” va “Yo‘q” kabi ishora qiluvchi imo-ishoralar mashq qilinadi. Kundalik hayotda va darsda maxsus yaratilgan vaziyatlar bu rivojlanishga imkon beradi [10, 101–103].

Keyin ritmik nutq hamrohligida raqslar qo‘shiladi, bu bolada ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadi. Sensor o‘yinlari qo‘llaniladi, ular yangi his-tuyg‘ularni (vizual, eshitish, taktil-motor, ta’m) faollashtiradi va ijobiy hissiy holatni yaratadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ASB bo‘lgan bolalarning xususiyatlaridan biri – bu ularning funksional maqsadiga qaramay, narsalarni boshqarishidir. Buning motivi narsalarning jozibali hissiy xususiyatlaridir [8, 4–9].

E. A. Yanushkoning fikriga ko‘ra, sensor o‘yinlar bilan shug‘ullanishda bolaga yoqadigan narsalarning sensor xususiyatlarini hisobga olish juda muhim, bu esa yangi rivojlanish resurslarini taqdim etadi [12, 136]. ASB bo‘lgan bolalar stereotipik o‘yinlarni namoyish etadilar, ular takrorlanish, o‘zgarmaslik, davomiylik va hikoyaning yo‘qligi bilan tavsiflanadi.

V. M. Samoylova ta’kidlaganidek, uning ijobiy jihatlaridan (bola uchun qulay vaziyat, uni muvozanatli holatga qaytarish imkoniyati) foydalanish mumkin va keyin u o‘zaro ta’sirni qurish uchun asos bo‘ladi [8, 4–9]. Sensor o‘yini bolaga yoqimli his-tuyg‘ularni boshdan kechirish, yangi sensor ma’lumotlarni olish va kattalar bilan muloqot qilish imkonini beradi. Pedagog ASB bo‘lgan bola tomonidan o‘zlashtirilgan o‘yinga yangi ma’no va elementlarni kiritishi kerak. Keyinchalik bola tomonidan tushunilgan va qabul qilingan yangi hissiy elementlar qo‘shiladi va bu uning o‘yin faoliyatini kengaytiradi.

Bu bosqichning asosiy maqsadi ASBga ega bolaning o‘z aqliy faoliyatini rag‘batlantirish, bu faoliyatni boshqa bolalar va kattalar bilan o‘zaro munosabatlarga yo‘naltirish va bolaning o‘yin ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

Uchinchi bosqich kattalar bilan faol o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgandir. O‘yinli korreksiya

jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- Tajribaning yangi faol shakllari uyg‘otiladi;
- Kattalar, tengdoshlar va o‘ziga nisbatan his-tuyg‘ular rivojlanadi;
- O‘zini o‘zi qadrlash va o‘zini anglash rivojlanadi;
- O‘yin va o‘yinsiz faoliyatning yangi shakllari boyitiladi.

M. Seligman ta’kidlaganidek, ASB bo‘lgan bolaning hayotiga, uning qilayotgan ishlari va his-tuyg‘ulariga hissiy ma’no singdirish juda muhimdir. Psixologning ishi shaxsiyatni rivojlantirish, atrofida nimalar bo‘layotganini tushunish va nutqni tushunish uchun juda muhimdir. Bunga kun davomida ularga hamroh bo‘ladigan va har qanday faoliyatning asosiy elementi bo‘lgan mazmunli sharhlar orqali erishiladi [9, 29].

Tadqiqotchi O. S. Nikolskayaning yozishicha, hissiy-semantik sharhlar bolani jalb qilishga, uning e’tiborini biror narsaga qaratishga, nima bo‘layotganini va nima deyilayotganini tushunishga yordam beradi. Bu sharh bolaning tajribasiga bog‘liq bo‘lishi, yoqimli his-tuyg‘ularni kuchaytirishi va yoqimsiz his-tuyg‘ularni yumshatishi, sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatishi kerak. Bolaning ham, uning atrofidagilarning, jumladan, ertak qahramonlarining his-tuyg‘ulariga sharh berish juda muhimdir. Alohida epizodlarni muhokama qilish orqali o‘qituvchi bolaga syujetlar orasidagi nuqtalarni bog‘lashni o‘rgatadi, bu esa bolaga voqealar va odamlar o‘rtasidagi munosabatlarda mantiqiy bog‘liqlikni o‘rnatishga yordam beradi. Bu nutqni tushunish jarayonini osonlashtiradi va voqealar o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatiladi. Bundan tashqari, muallif bolaning e’tiborini o‘zi haqidagi hikoyaga qaratish osonroq ekanligini ta’kidlaydi [6, 224].

Hikoya tuzish nutqni tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. Hikoya tuzish kattalarning bola haqidagi hikoyani batafsil va sekin bayon etishi, bir vaqtning o‘zida vaziyatni tasvirlashi, bolani rasmni yakunlashga va uning xohishiga ko‘ra bo‘yashga jalb qilishini anglatadi. Asosiy maqsad bolaning rivojlanayotgan voqealarga e’tibor qaratishi, tinglashi va hikoyaning ma’nosini tushunishidir.

Shunday qilib, autizm spektri buzilishi bo‘lgan bola uchun o‘yin faoliyatini tashkil qilishning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: dastlabki aloqani o‘rnatish, dastlabki muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish, kattalar bilan faol muloqot qilish, ko‘z bilan aloqa o‘rnatish va sensorli o‘yinlardan foydalanish.

Autizm spektri buzilishi bo‘lgan bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda o‘yin faoliyatini tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tizimli tadqiq etish ushbu sohadagi qator muhim ilmiy va amaliy natijalarni umumlashtirish imkonini beradi. Eng avvalo, autizmli bolalarda an’anaviy syujetli-rolli o‘yinlarning o‘z-o‘zidan shakllanmasligi, ularning faoliyati ko‘pincha stereotipli, takroriy va ijtimoiy sherikdan ajralgan xususiyatga ega ekanligi maqsadli pedagogik aralashuvni taqozo etadi. Shu bois o‘yinni oddiy ko‘ngilochar vosita sifatida emas, balki bolaning kommunikativ ehtiyojlarini faollashtiruvchi yetakchi vosita sifatida qarash lozim bo‘ladi.

MUHOKAMA

Autizm spektri buzilishi bo‘lgan bolalarda kommunikativ rivojlanishni ta’minlash masalasiga faqat alohida nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish nuqtayi nazaridan yondashish yetarli emas. Muhokama qilinayotgan pedagogik muammo bolaning o‘zaro ta’sirga kirishish motivatsiyasi, sherik faoliyatini qabul qilishi, vaziyatni anglashi va o‘z xatti-harakatini kommunikativ vaziyatga moslashtira olish qobiliyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli o‘yin faoliyatining pedagogik qiymati uning bolaga tayyor kommunikativ shakllarni o‘rgatishida emas, balki tabiiy o‘zaro ta’sir ehtiyojini yuzaga chiqarish imkoniyatidadir. Bunda o‘yin jarayoni pedagogik topshiriq bilan bolaning qiziqishi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydigan vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhim jihatlardan biri shundaki, ASBli bolaning o‘yinga qo‘shilishi uning kommunikativ rivojlanish darajasini baholashning amaliy ko‘rsatkichi bo‘lishi mumkin. Masalan, bolaning sherikning harakatini kutishi, navbatni qabul qilishi, faoliyatni davom ettirish uchun signal berishi yoki o‘yindagi o‘zgarishga munosabat bildirishi kommunikativ rivojlanishning muayyan dinamikasini ko‘rsatadi. Demak, pedagog o‘yin natijasini faqat topshiriqning bajarilishi bilan o‘lchamasligi, balki bolaning sherik bilan o‘zaro ta’siridagi mikrodarajadagi o‘zgarishlarni ham hisobga olishi lozim. Bunday mezonlar korreksion ishning real samaradorligini aniqlash imkonini kengaytiradi.

O‘yin faoliyatini tashkil etishda yana bir muhim masala pedagogik ta’sirning intensivligidir. Haddan tashqari faol boshqaruv bolaning mustaqil tashabbusini cheklashi, juda kam aralashuv esa kommunikativ imkoniyatlarning yuzaga chiqishiga yetarli sharoit yaratmasligi mumkin. Shu bois pedagogning roli o‘yinni to‘liq boshqaruvchi subyekt emas, balki bolaning harakatlarini kommunikativ vaziyatga bog‘lovchi hamkor sifatida qayta ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiq. Bunday pozitsiya bolaning kichik tashabbuslarini ham pedagogik jihatdan ahamiyatli signal sifatida qabul qilishni talab etadi.

Shuningdek, kommunikativ o‘yinlarning samaradorligi ularning kundalik hayot bilan bog‘langanlik darajasiga ham bog‘liq. Faqat maxsus mashg‘ulot doirasida shakllangan ko‘nikma bolaning real ijtimoiy muhitida qo‘llanmasa, uning amaliy qiymati cheklangan bo‘lib qoladi. Shu nuqtayi nazardan, o‘yinda hosil qilingan navbat kutish, tanlash, yordam so‘rash, rad etish, birgalikdagi harakatni davom ettirish kabi kommunikativ tajribalarni kundalik faoliyatga ko‘chirish mexanizmlarini nazarda tutish zarur. Bu esa korreksion pedagogikani alohida mashg‘ulotlar majmuasi emas, balki bolaning kundalik faoliyati bilan uzviy bog‘langan uzluksiz jarayon sifatida tashkil etishni taqozo etadi.

Muloqotni rivojlantirishda tengdoshlar ishtirokining imkoniyatlari ham alohida e’tiborni talab qiladi. Kattalar bilan tashkil etilgan o‘yin bolaga dastlabki xavfsiz kommunikativ tajribani berishi mumkin, biroq ijtimoiy muhitga moslashish

uchun tengdosh bilan oʻzaro harakat qilish tajribasi ham zarur. Shu sababli individual mashgʻulotlardan kichik guruhli oʻyinlarga bosqichma-bosqich oʻtish pedagogik jihatdan istiqbolli yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Bunda guruh tarkibi, oʻyin davomiyligi va kommunikativ talablar bolaning imkoniyatlariga mos ravishda belgilanib, ortiqcha ijtimoiy bosimning oldi olinishi kerak.

Yana bir muhim jihat oʻyin materiallarini tanlash masalasidir. Bir xil didaktik vositadan barcha bolalar uchun bir xil natija kutish metodik jihatdan toʻgʻri emas. Oʻyinchoq yoki materialning bolaning individual qiziqishi, sezgi xususiyatlari va faoliyatni qabul qilish darajasiga mosligi uning kommunikativ vaziyatga jalb etilishiga ta'sir qiladi. Shuning uchun material tanlashning asosiy mezoni uning murakkabligi emas, balki bola bilan oʻzaro ta'sirni yuzaga keltirish imkoniyatidir. Bu yondashuv pedagogga mavjud vositalarni qayta tashkil etish, bir oʻyin materialidan turli kommunikativ maqsadlarda foydalanish imkonini beradi.

Oʻyin faoliyatining korreksion imkoniyati uning tashqi shaklidan koʻra, qanday pedagogik maqsad bilan tashkil etilishiga koʻproq bogʻliq. Bir xil oʻyin bir holatda oddiy hordiq vositasi boʻlsa, boshqa holatda tanlash, murojaat qilish, kutish, hamkorlik qilish va javob qaytarish kabi kommunikativ harakatlarni tabiiy ravishda yuzaga keltiruvchi pedagogik vaziyatga aylanishi mumkin. Shuning uchun ASBli bolalar bilan ishlaydigan mutaxassisdan oʻyin mazmunini emas, uning ichki kommunikativ imkoniyatlarini koʻra bilish, bolaning kichik javoblarini pedagogik resursga aylantirish va oʻyin jarayonini individual rivojlanish dinamikasiga mos ravishda oʻzgartirib borish talab etiladi.

XULOSA

Autizm spektri buzilishi boʻlgan bolalarda muloqot koʻnikmalarini rivojlantirish korreksion-pedagogik jarayonning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib, bunda oʻyin faoliyati tabiiy kommunikativ muhitni shakllantirish imkonini beruvchi samarali pedagogik vosita sifatida namoyon boʻladi. Oʻyin jarayonining imkoniyatlaridan toʻlaqonli foydalanish uchun uning mazmuni bolaning individual rivojlanish darajasi, qiziqishlari, sensor ehtiyojlari va oʻzaro ta'sirga tayyorgarligiga muvofiq tashkil etilishi zarur. ASBli bolalar bilan ishlashda kommunikativ rivojlanish bir martalik mashgʻulot yoki alohida metod natijasi sifatida emas, balki izchil va bosqichma-bosqich shakllanadigan jarayon sifatida qaralishi lozim. Bunda pedagogning vazifasi bolaning mavjud faoliyatini toʻliq almashtirish emas, balki undagi tabiiy qiziqish va tashabbuslarni muloqotga yoʻnaltirishdan iborat. Oʻyin davomida yuzaga keladigan kichik kommunikativ harakatlarni qoʻllab-quvvatlash keyingi murakkabroq ijtimoiy oʻzaro ta'sirlar uchun zarur tajribani shakllantiradi. Oʻyin faoliyatining samaradorligini oshirishda individual yondashuv, qulay psixologik muhit, izchil pedagogik qoʻllab-quvvatlash, sensor imkoniyatlarni hisobga olish va kommunikativ vaziyatlarni kundalik faoliyat bilan bogʻlash muhim shartlar sifatida belgilanadi. Shu bilan birga, shakllangan koʻnikmalarni faqat maxsus mashgʻulot doirasida emas, balki oila, ta'lim muassasasi va tengdoshlar bilan kundalik munosabatlarda qoʻllashga yoʻnaltirish ularning barqarorligini ta'minlaydi. Shunday qilib, ASBli bolalarda oʻyin faoliyatini kommunikativ maqsadga yoʻnaltirib tashkil etish bolaning muloqotga boʻlgan ehtiyojini kuchaytirish, ijtimoiy oʻzaro ta'sir tajribasini kengaytirish va mustaqil kommunikativ xatti-harakatlarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Mazkur jarayonning pedagogik samaradorligi esa oʻyin vositalarining oʻzidan koʻra, ularni bolaning individual imkoniyatlari bilan uygʻunlashtirish, pedagogik ta'sirni bosqichma-bosqich kuchaytirish hamda kommunikativ tajribani real hayotiy vaziyatlarga koʻchirish bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алимова И. А. Методика исследования и реабилитация детского аутизма у детей в Ферганском региональном филиале Республиканского центра социальной адаптации детей // Klinik va profilaktik tibbiyot jurnali. – 2023. – № 3. – С. 6.

2. Балака Л. П., Сихра Д. Н. Развитие социально-коммуникативных навыков детей с РАС в условиях инклюзивного образования // Академический вестник. – 2020. – № 2. – С. 46–49.

3. Эльконин Д. Б. Психология игры. – Москва: Владос, 1999. – 360 с.

4. Амелина Е. Г. Нейропсихологическая дифференциация и коррекция РАС у дошкольников // Современное дошкольное образование. – 2015. – № 6. – С. 50–55.

5. Васина А. С., Тишина Л. А. Развитие коммуникации у детей с РАС средствами игровой терапии // Психология в меняющемся мире: проблемы, гипотезы, исследования. – 2019. – № 3. – С. 313–318.

6. Ильина С. К. Лекотека в ДОУ. Организация, документация. – Москва: ТЦ Сфера, 2011. – 128 с.

7. Носенко Н. П. Содержание модели совершенствования физических качеств, навыков сенсорного восприятия, речевого развития у детей дошкольного возраста с РАС // Научный журнал КубГАУ. – 2017. – № 125 (01). – С. 1–11.

8. Туктарова А. М. Особенности детей с расстройствами аутистического спектра // Общетеоретические отраслевые проблемы науки и пути их решения. – 2019. – № 7. – С. 101–103.

9. Самойлова В. М., Малахова Е. Е. Игра как неотъемлемая часть коррекционной работы с детьми дошкольного возраста с расстройствами аутистического спектра // Психология и образование. – 2017. – № 5 (35). – С. 4–9.

10. Янушко Е. А. Игры с аутичным ребенком. Установление контакта, способы взаимодействия, развитие речи, психотерапия. – Москва: Теревинф, 2004. – 136 с.

11. Самойлова В. М., Малахова Е. Е. Игра как неотъемлемая часть коррекционной работы с детьми дошкольного возраста с расстройствами аутистического спектра // Психология и образование. – 2017. – № 5 (35). – С. 4–9.

12. Селигман М. Обычные семьи, особые дети. – Москва: Теревинф, 2009. – 29 с.

13. Никольская О. С., Баенская Е. Р., Либлинг М. М. Дети и подростки с аутизмом. Психологическое сопровождение. – Москва: Теревинф, 2005. – 224 с.